

EKOLOGIK TA'LIMNI INGLIZ TILI FANIGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Isomiddinova Shahlo Olim qizi
shahloisomiddinova95@gmail.com

Tel: +999 91 599 54 64

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik ta'limni ingliz tili faniga integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida an'anaviy ta'lim yondashuvlarining ekologik ongni rivojlantirishdagi kamchiliklari aniqlanib, loyihaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan integrativ yondashuvning samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, "Eco English" loyihasi doirasida o'quvchilarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy faoliyat turlari hamda ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar. Ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, fanlararo integratsiya, ekologik ong, loyihaviy ta'lim, Eco English loyihasi, pedagogik yondashuv, ekologik kompetensiya, umumiy o'rta ta'lim, ingliz tili o'qitish metodikasi

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические возможности интеграции экологического образования в процесс обучения английскому языку с целью формирования экологической культуры у учащихся общеобразовательных школ. В ходе исследования выявлены ограничения традиционных методов обучения в развитии экологического сознания и обоснована эффективность интегративного подхода на основе проектных образовательных технологий. Также рассматриваются практические виды деятельности в рамках проекта «Eco English», направленные на развитие экологических компетенций учащихся.

Ключевые слова. Экологическое образование, экологическая культура, междисциплинарная интеграция, экологическое сознание, проектное обучение, проект Eco English, педагогический подход, экологическая компетентность, общее среднее образование, методика преподавания английского языка.

Abstract. This article analyzes the pedagogical possibilities of integrating environmental education into English language teaching in the process of developing ecological culture among secondary school students. The study identifies the limitations of traditional teaching approaches in fostering ecological awareness and substantiates the effectiveness of an integrative approach based on project-based learning technologies. Furthermore, the paper highlights practical activities within the framework of the "Eco English" project aimed at developing students' environmental competencies and their significance in the educational process.

Key words. Environmental education, ecological culture, interdisciplinary integration, ecological awareness, project-based learning (project work), Eco English project, pedagogical approach, ecological competence, general secondary education, English language teaching methodology.

Biz yashab turgan tabiat va jamiyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bugungi kunda insonlarning turli ehtiyojlari, xatti-harakatlari hamda ortib borayotgan iste'mol talablari ushbu muvozanatning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Insoniyatning tabiiy muhitga nisbatan

noto'g'ri munosabati natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar allaqachon mintaqaviy darajadan chiqib, global miqyosdagi muammoga aylangan. Shu bois ekologiya, zamonaviy jamiyatning eng dolzarb ijtimoiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Zero, kelajak avlod taqdiri bevosita atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan samarali choralar bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur holatda muhim savol tug'iladi: bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod, xususan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari "ekologik ong" va "ekologik ta'lim-tarbiya" kabi tushunchalardan qay darajada xabardor? Ushbu savollarga javob topish uchun maktab ta'lim tizimida ekologik bilimlarning berilish holatini hamda o'quv jarayonining tashkil etilish mexanizmlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaldagi o'quv dasturlarida ekologiyaga oid bilimlar asosan biologiya, geografiya va kimyo fanlari doirasida yoritiladi. Jumladan, biologiya fanini o'rganish jarayonida o'quvchilar ekotizimlar, biologik xilma-xillik hamda inson faoliyatining tabiatga ta'siri haqida nazariy bilimlarga ega bo'ladilar. Biroq mazkur bilimlar ko'pincha amaliy faoliyat bilan mustahkamlanmaydi. Natijada o'quvchilar ekologik muammolarning kundalik hayotga ta'siri yoki ularni bartaraf etish yo'llari haqida yetarli darajada tasavvurga ega bo'lmaydilar. An'anaviy ta'lim yondashuvlari asosida tashkil etilgan nazariy mashg'ulotlar esa o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun yetarli emas. Bundan tashqari, sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi (o'rtacha 30–35 nafar) ham individual yondashuvni ta'minlash imkoniyatini cheklaydi. Standartlashtirilgan baholash tizimi esa ko'pincha o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishdan ko'ra, imtihon natijalarini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi. Natijada o'qituvchilar ko'proq nazariy bilim berish bilan cheklanib qoladilar.

Shuningdek, maktab ta'lim tizimida ekologik ta'limni boshqa fanlar bilan integratsiya qilishga to'sqinlik qilayotgan bir qator omillar ham mavjud. Jumladan:

- o'qituvchilarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi;

- moliyaviy resurslarning cheklanganligi;

- ekologik ta'limni integratsiyalashga oid metodik ishlanmalarning mavjud emasligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida ekologik ta'limni chet tili, xususan ingliz tili faniga integratsiya qilish samarali pedagogik yechim sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bunda o'quvchilar nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki global ekologik muammolarni ingliz tilida muhokama qilish, tahlil etish hamda ularga nisbatan munosabat bildirish kompetensiyalarini ham egallaydilar.

Loyihaviy ta'lim texnologiyalari ("project work") asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ekologik mas'uliyat hissini shakllantirish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilar ekologik loyihalar ishlab chiqish, ularni taqdim etish hamda amaliy natijalarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, ekologik ta'limni rivojlantirishda ekskursiyalar, tabiat qo'riqxonalari va bog'larga uyushtiriladigan oflayn hamda onlayn sayohatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat lagerlari doirasida hayvonot va o'simlik dunyosini kuzatish, ekotizimlarni o'rganish kabi faoliyat turlari o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maktablarda "Eco English" klublarini tashkil etish orqali ekologik ta'limga oid barcha tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish mumkin. Jumladan:

- maktab hududida ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish;

- gulzorlar barpo etish va parvarishlash;

- issiqxona tashkil etish;
- sinf va laboratoriya xonalarini o'simliklar bilan bezash;
- ekologik tanlovlar o'tkazish.

Mazkur faoliyat turlari o'quvchilarning ekologik faolligini oshirish bilan birga, ularning kelajakda tabiiy fanlar sohasida yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun muhim poydevor yaratadi.

Shuni ta'kidlash joizki, ekologik ta'limni ingliz tili faniga integratsiya qilish umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'lim yondashuvlaridan farqli o'laroq, loyihaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarning ekologik bilimlarini amaliy faoliyat bilan mustahkamlash imkonini yaratadi. Xususan, "Eco English" loyihasi doirasida amalga oshirilgan faoliyatlar o'quvchilarning ekologik ongini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash hamda ekologik muammolarga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantiradi. Shuningdek, mazkur yondashuv o'quvchilarning ingliz tilida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, global ekologik muammolarni tahlil qilish va ularga nisbatan munosabat bildirish ko'nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Palmer J.A. *Environmental Education in the 21st Century*. – London: Routledge, 2021. – 280 p.
2. *Environmental Education in Schools and Universities* [Elektron manba].-URL: <https://ecobnb.com/blog/2025/02/environmental-education-schools-universities>
3. Maktabda ekologik ta'lim ahamiyati [Elektron manba].-URL: <https://oxbridgeschool.uz/uz/maktabda-ekologik-talim-ahamiyati>
4. Tilbury D. **Environmental Education for Sustainability: Defining the New Focus of Environmental Education in the 1990s** // *Environmental Education Research*. – 1995. – Vol. 1, No. 2. – P. 195–212.
5. Thomas J. W. **A Review of Research on Project-Based Learning**. – San Rafael, CA: Autodesk Foundation, 2000. – 45 p.
6. Coyle D., Hood P., Marsh D. **CLIL: Content and Language Integrated Learning**. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 170 p.
7. UNESCO. **Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives**. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.
8. Sterling S. **Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change**. – Totnes: Green Books, 2001. – 96 p.